

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELEKTNING O‘RNI

Mamatxanova Ziyoda
Xalqaro Nordik universiteti
MMB 123- guruh magistiri

O‘zbekistonda ham axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030-yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hamda «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda raqamlashtirishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan.⁹⁵

Ma‘lumki, zamonaviy sun‘iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritmlar va dasturiy tizimlardan iborat bo‘lib, inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, sun‘iy intellekt murakkab tahlillar va katta ma‘lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o‘z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega «aqlli» texnologiya hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan sun‘iy intellektga to‘rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaralmoqda.⁹⁶

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan quyidagi loyihalarini ko‘rib chiqish mumkin. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida amalga oshirilgan «Harambee» loyihasi ijtimoiy yoshlar bandligini ta‘minlashga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu dastur sun‘iy intellekt yordamida kasbiy-malakaviy moslikni aniqlab, ish izlovchilar bazasini shakllantiradi va ularga turli me‘yorlarga asosan tegishli mos bo‘sh ish o‘rnini taklif qiladi. «Harambee» qisqa davr ichida asosan xususiy va norasmiy sektorda yoshlarni ish bilan ta‘minlagan.

Sun‘iy intellekt asosida ishlovchi kasbiy-malakaviy moslik bo‘yicha dasturning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi norasmiy sektorda band bo‘lgan, ayniqsa, bir martalik ish bozorlaridagi ish qidiruvchilarning bandligini ta‘minlashga va ularni ijtimoiy himoya bilan qamrab olishga imkon beradi. Dastlabki bosqichda sun‘iy intellekt texnologiyalarini mobil qurilmalardan foydalanish mumkin bo‘lgan dasturlar orqali taklif qilib, norasmiy sektordagilarni kunlik va mavsumiy ishlarga jalb qilish, ularning bandligini ta‘minlash mumkin.

Sun‘iy intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2025-yilga borib O‘zbekiston sanoatining ikkita asosiy sohasida 430 mingdan ortiq yangi ish

⁹⁵ <https://lex.uz/docs/-5297046>

⁹⁶ <https://review.uz/uz/post/jahon-iqtisodiyoti-tarmoqlarida-suniy-intellekt?ysclid=lv3bloxmh818435952>

o‘rinlari yaratilishi mumkin. Biroq bunga faqat mamlakat tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi siyosatning joriy etilishi hamda ko‘nikmalar va bilimlarga sarmoya qilinishi natijasida erishish mumkin bo‘ladi. Bu haqda Osiyo taraqqiyot banki (OTB)ning “Markaziy va G‘arbiy Osiyoning tez o‘sayotgan sohaslarida ko‘nikmalarni oshirish orqali to‘rtinchi sanoat inqilobidan foydalanish” tadqiqotida so‘z borgan.

To‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalaridan foydalanish 2025-yilga borib O‘zbekistonning sezilarli o‘shish potensialiga ega bo‘lgan to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida 100 mingta yangi ish o‘rinlarini, shuningdek, mamlakatdagi eng yirik ish beruvchilardan biriga aylangan qurilish sohasida 334 mingta yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Tadqiqot o‘shish, bandlik va to‘rtinchi sanoat inqilobiga to‘rtinchi sanoat inqilobi jiddiy ta‘sir etadigan O‘zbekistondagi ikki sektordagi ish beruvchilarni so‘rov qilish asosida amalga oshirilgan. So‘rov onlayn ish o‘rinlari portali ma‘lumotlarini tahlil qilish va ta‘lim muassasalarining to‘rtinchi sanoat inqilobi ga tayyorligini baholash uchun alohida o‘tkazilgan so‘rov bilan to‘ldiriladi.

Ish o‘rinlari yaratilishining sof ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun tadqiqotda avtomatlashtirish natijasida siqib chiqarilgan ish o‘rinlari sonini va to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalaridan foydalanishga potensial o‘tish natijasida daromad va unumdorlik ortishi hisobiga yaratilgan yangi ish o‘rinlari sonini baholash modelidan foydalanilgan. Tegishli siyosat qo‘llanilgan taqdirda va professional ko‘nikmalarga sarmoya qilingan taqdirda yaratiladigan yangi ish o‘rinlari soni yo‘qotilgan ish o‘rinlari sonidan ko‘proq bo‘ladi.

Hisobotda qayd etilishicha, O‘zbekiston ishchi kuchining qariyb 80 foizini ish bilan band qilgan kichik va o‘rta korxonalar to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini joriy qilishda resurs va ishchi kuchining jiddiy yetishmovchiligiga duch kelishi mumkin. U kichik va o‘rta korxonalar uchun to‘rtinchi sanoat inqilobi ga yo‘naltirilgan bepul yoki subsidiyalangan konsalting dasturlarini, shuningdek, ishchilar uchun ish joyida kompaniya ichida va tashqi xizmat ko‘rsatuvchilar orqali o‘qitishni tavsiya qiladi va bu kichik va o‘rta korxonalar uchun muayyan resurslar yetishmovchiligi masalasini hal qilishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, soha va tarmoqlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, “aqlli dasturlar”ning qo‘llanish sohasini kengaytirish bo‘yicha davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ijro etilmoqda, bu esa o‘z navbatida yurtimizda yangi ish o‘rinlarini yaratish, hodimlarni qayta o‘qitish, malakasini oshirish, IT sohasida ta‘lim olishga bo‘lgan talabni yanada oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.

2. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND*

3. Гулбоев, Н. А., Дуйсенов, Н. Э., Ахмедов, Б. А. (2020). Модели систем управления электрическими сетями. Молодой ученый, 22(312), 105-107.

4. Мухамедов, Ф. И., & Ахмедов, Б. А. (2020). Инновацион “Klaster mobile” иловаси. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 140-145.

5. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн- курсов в дистанционных условиях современного общества (модель- программа для преподавателей образовательных учреждений). Universum: технические науки, 12 (81), 11-14.

6. <https://lex.uz/docs/-5297046>

7. <https://review.uz/uz/post/jahon-iqtisodiyoti-tarmoqlarida-suniy-intellekt?ysclid=lv3bloxmh818435952>

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА СТРАТЕГИК РЕЖАЛАШТИРИШ УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШ БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Элмуродов Фахриддин

*Магистрант Ўзбекистон Республикаси Вазирлар
Маҳкамаси хузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик
олий мактаби, Лойиҳа бошқаруви йўналиши*

Янги Ўзбекистон тадбиркорлари ва бизнес вакилларига кенг имкониятлар яратилиб соҳа янги босқичга кўтарилмоқда. Бу эса ўз навбатида тадиркорлар ҳамда бизнес вакилларининг масъулиятини ошириб, ташкилот ёки корхоналарни бошқаришни тўғри ташкил этиш ва берилаётган имкониятлардан тўғри фойдаланишни талаб этади Бундай шароитда корхоналар бошқарувни тўғри ташкиллаштириш яъний стратегияларни тўғри танлашни тақоза этади. Корхона ўз фаолиятида маълум бир тўсиқлар ва хавф-хатарга дуч келишини олдиндан билиши ва шунга нисбатан принвентив чоралар кўриб бориши керак бўлади. Бу стратегик режалаш ва ишлаб чиқишни таълаб этади. Стратегик режаларни мукамал тарзда ишлаб чиқиш учун хориж тажрибасини ўрганиб, ички ва ташқи таҳлиллар ўтказиш корхона бошқарув самарадорлигини таъминлайди.

Стратегик режа ва режалаштириш корхона учун аниқ фаразлар қарашларни вужудга келтириб, бунда кимларни қайси ходимларни ўз соҳаси бўйича банд қилиш, қилмаслик каби вазифаларини белгилаб беради. Бу эса корхона учун қулайликни келтириб чиқариб, ходимларни саралаш ва янги маҳсулотларни ишлаб чиқариш ҳамда ривожланиш имконини беради.

Стратегик бошқаришни амалга оширишда стратегик режалаштиришга суянилади. Аслида ҳам стратегик бошқаришнинг муҳим таркибий қисми бўлиб стратегик режани амалга оширишга хизмат қилади. Бу эса ташкилий маданиятнинг яратилишини талаб этади. Ташкилотда кичик тизим стратегик режалаштириш бўлганида ҳам ташкилий маданият (стратегияни амалга оширувчи), мойиллик тизимини яратиш, меҳнатни ташкил этиш ва ҳоказолар бўлмаса стратегик бошқаришга ўтиб бўлмайди. [3, с.58].